



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TA'JIRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODEL YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna Xolov Javlonbek Davronovich UZBEKISTAN KAK AKADEMIЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich “YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASSTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE	189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN‘IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI	195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI	207
Tojiyev Sa‘dulla Muhitdinovich INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE “TECHNOPARK” ENTERPRISE	213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi	



THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY	218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	
TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ NOQISHLOQ XO'JALIGI FAOLIYATINING TA'SIRINI IQTISODIY BAHOLASH	224
U.U.Nurullayev	
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	230
Asqarov Akmal Anvar o'g'li	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEKANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI	246
Xayrullayev Elbek Xayrulla o'g'li	
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ.....	250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH	261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI	267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich	
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS	275
Imomov Inomiddin	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI.....	281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich	
NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI.....	292
Djumonov Dilshod Safarolievich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	302
Shodmonov Nurjaxon Shokir o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich	
O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	314
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	321
Baxadir Adilchayev	
EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi	



BANK OPERATSIYALARI BO'YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIIY VA USLUBIIY TAHLILI	331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ	341
Гофурова Шахрибону Комол қизи	
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY	349
Sarvinoz Asamova	
HUDUDIIY INVESTITSIIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIIY IQTISODIIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI BO'YICHA HORIJ TAJRIBALARI.....	368
Samiyev Mirkamol Amriddin o'g'li	
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	372
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOIYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov	
YASHIL INVESTITSIIYALARNING HUQUQIIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	389
Temirova Nozima Shuhrat qizi	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIIYAVIIY TAHLILNING ZAMONAVIIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA	395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	403
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
MINTAQI IQTISODIIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASSTERLASHNING ASOSIIY TAMOIYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi	
HUDUD IQTISODIIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH	412
Sapayev Sindor Qadamboy o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMDA KPINING AHAMIIYATI VA UNII JORII ETISHNING ILMIY-NAZARIIY YONDOSHUVLARI.....	418
Botirjon Ergashov	
MO'YNA VA TRIKOTAJ MATERIALLARNI YOPISHTIRISH UCHUN SUVLI POLIMER YOPISHTIRUVCHI KOMPOZITSIIYA: TARKIBI, TAYYORLASH USULI VA XOSSALARI.....	424
Temirova Gulnoz Ibodovna	
Shodmonova Mijgona Salimovna	
SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIIYATINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELII.....	429
Mamatov Sardor Ilyosovich	
Rashidova Nargiza Orifjon qizi	
KICHIIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA EMPIRIK NATIIJALAR	435
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI	442
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
PAXTA YETISHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN BARQAROR QISHLOQ XO'JALIK AMALIYOTLARI: XALQARO ILMIY ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI	447
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
Mirkasimov Baxrom Ravshanovich	
Karimov Komiljon Xamidovich	
Abduvaliyeva Nilufar Muxamadnosir qizi	
RAQAMLI BANKLAR VA KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY TAHDIDLAR VA HIMOYA USULLARI	465
Abrorov Azizjon Akobirovich	
HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI	470
Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH.....	476
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI.....	485
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
O'ZBEKISTONDA XALQARO EKOLOGIK MAJBURIYATLARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	491
G'ayratullayev Noxidxon Iqboljon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI TIJORAT RISKLARINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	495
Sharipova Gulmira Toxirovna	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBIY ELEMENTLARI.....	502
Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSION LOYIHALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI	507
Sarimsaqov Sherzod Xamidovich	



SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSION LOYIHALARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Sarimsaqov Sherzod Xamidovich

“Agrobank” ATB Andijon viloyat boshqarmasi

muammoli kreditlar bilan ishlash bo‘limi bosh menejeri

Annotatsiya: Mazkur maqolada sanoat korxonalarida investitsion faoliyatning iqtisodiy mohiyati, mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari hamda investitsion loyihalarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Investitsiya, investitsion faoliyat va investitsion loyiha tushunchalariga turli iqtisodiy maktablar va zamonaviy iqtisodchi olimlarning yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Investitsion loyihalarni shakllantirishning asosiy bosqichlari, ularni tanlash mezonlari, iqtisodiy samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari va investitsion risklarni hisobga olish yo‘nalishlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni shakllantirish va tanlashning kompleks yondashuvi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion loyiha, sanoat korxonasi, investitsiya samaradorligi, kapital qo‘yilmalar, investitsion risk, modernizatsiya, innovatsiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация: В данной статье исследуется экономическая сущность, содержание и специфика инвестиционной деятельности на промышленных предприятиях, а также теоретические и методологические основы формирования инвестиционных проектов. Проводится сравнительный анализ подходов различных экономических школ и современных экономистов к понятиям инвестиций, инвестиционной деятельности и инвестиционного проекта. Систематизированы основные этапы формирования инвестиционных проектов, критерии их отбора, показатели оценки экономической эффективности и области учета инвестиционных рисков. В результате исследования предложен комплексный подход к формированию и отбору инвестиционных проектов на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционный проект, промышленное предприятие, эффективность инвестиций, капиталовложения, инвестиционный риск, модернизация, инновации, конкурентоспособность.

Abstract: This article studies the economic essence, content and specific features of investment activities in industrial enterprises, as well as the theoretical and methodological foundations of the formation of investment projects. The approaches of various economic schools and modern economists to the concepts of investment, investment activity and investment project are analyzed comparatively. The main stages of the formation of investment projects, the criteria for their selection, indicators of economic efficiency assessment and areas for accounting for investment risks are systematized. As a result of the study, a comprehensive approach to the formation and selection of investment projects in industrial enterprises is proposed.

Keywords: investment, investment activity, investment project, industrial enterprise, investment efficiency, capital investments, investment risk, modernization, innovation, competitiveness.

KIRISH

Sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarining texnologik yangilanishi va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda investitsion faoliyat muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida sanoat korxonalari oldida mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash bilan bir qatorda, ularni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, resurs va energiya tejamar ishlab chiqarishni tashkil etish hamda yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish vazifalari turibdi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish esa yetarli miqdordagi investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishni talab etadi. Investitsion faoliyat korxonaning moliyaviy resurslarini kelajakda iqtisodiy natija olish maqsadida muayyan obyektlarga yo‘naltirish jarayoni sifatida qaralishi mumkin. Biroq sanoat korxonalari



misolida investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni bundan kengroq bo'lib, ular ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini yangilash, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va korxonaning strategik rivojlanishini ta'minlash vositasi vazifasini bajaradi. Investitsion faoliyatning samaradorligi, avvalo, investitsiyalarning qaysi loyihalarga yo'naltirilayotgani, ularning iqtisodiy asoslanganligi, moliyalashtirish manbalari, amalga oshirish muddati va investitsion risklarning darajasiga bog'liq. Shu sababli sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni shakllantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarida investitsion faoliyatning iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan asoslash hamda investitsion loyihalarni shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- investitsiya va investitsion faoliyat tushunchalarining iqtisodiy mazmunini ochib berish;
- sanoat korxonalarida investitsion faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- investitsion loyiha tushunchasiga mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;
- investitsion loyihalarni shakllantirish bosqichlarini tizimlashtirish;
- investitsion loyihalarni tanlash mezonlarini asoslash;
- investitsion loyihalar samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish;
- investitsion risklarni hisobga olgan holda loyihalarni shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida sanoat korxonalarining investitsion faoliyati, predmeti sifatida esa investitsion loyihalarni shakllantirish, tanlash va iqtisodiy samaradorligini baholash jarayoni olingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda iqtisodiy nazariya, sanoat iqtisodiyoti, investitsiyalarni boshqarish va investitsion tahlil sohalarida shakllangan ilmiy yondashuvlar asos qilib olindi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini tushuntirishda klassik iqtisodiy maktab vakillarining kapital, jamg'arish va ishlab chiqarish omillariga oid qarashlari, neoklassik yondashuvlarning kapital samaradorligi konsepsiyasi, Y. Shumpeterning innovatsion rivojlanish nazariyasi hamda zamonaviy investitsion boshqaruv konsepsiyalaridan foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: Tizimli yondashuv – investitsion faoliyatni korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, innovatsion va strategik boshqaruv tizimlari bilan o'zaro bog'liq jarayon sifatida o'rganish uchun qo'llanildi. Qiyosiy tahlil usuli – investitsiya, investitsion faoliyat va investitsion loyiha tushunchalariga turli olimlar tomonidan berilgan yondashuvlarni taqqoslashda foydalanildi. Guruhlash usuli – investitsion loyihalarni maqsadi, muddati, moliyalashtirish manbalari, risk darajasi va iqtisodiy natijasi bo'yicha tasniflashda qo'llanildi. Investitsion tahlil usuli – investitsion loyihalar samaradorligini baholashda NPV, IRR, PI va qoplanish muddati kabi ko'rsatkichlarni qo'llash imkoniyatlarini asoslashda ishlatildi. Ssenariyli yondashuv – investitsion loyihalarning optimistik, bazaviy va pessimistik holatlardagi natijalarini baholash zaruratini asoslashda qo'llanildi.

Investitsion loyihaning sof joriy qiymati quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$NPV = \sum CF_t / (1+r)^t - I_0$$

bu yerda: CF_t - t davridagi pul oqimi; r - diskont stavkasi; t - hisob-kitob davri; I_0 - boshlang'ich investitsiya hajmi. $NPV > 0$ bo'lgan holatda investitsion loyihani iqtisodiy jihatdan maqbul deb baholash mumkin.

Investitsiyalarning ichki daromadlilik normasi-IRR loyiha bo'yicha kelajak pul oqimlarining joriy qiymati boshlang'ich investitsiya hajmiga teng bo'ladigan diskont stavkasi sifatida aniqlanadi.

Investitsiya rentabelligi indeksi:

$$PI = PV / I_0$$

ko'rinishida aniqlanib, $PI > 1$ bo'lgan loyihalar iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi.

Biroq sanoat korxonalarida investitsion loyihani faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tanlash yetarli emas. Shuning uchun tadqiqotda investitsiyalarning ishlab chiqarish, innovatsion, ijtimoiy va strategik natijalarini ham hisobga olish zarurligi asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya" tushunchasi turlicha talqin qilinsa-da, ularning umumiy jihati mavjud resurslarni kelajakda iqtisodiy, moliyaviy yoki ijtimoiy natija olish maqsadida joylashtirish bilan bog'liq. Sanoat



korxonasi nuqtai nazaridan investitsiya – ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining kelgusi natijalarini shakllantirish maqsadida asosiy va aylanma kapitalni kengaytirish, modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va boshqa iqtisodiy aktivlarga yo‘naltiriladigan resurslar majmuidir. Investitsion faoliyat esa investitsiyalarni shakllantirish, jalb qilish, joylashtirish, boshqarish va ulardan iqtisodiy samara olishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq jarayonlar tizimi hisoblanadi. Bunda investitsion faoliyatni quyidagi zanjir ko‘rinishida ifodalash mumkin:

Investitsion resurslar → investitsiya obyektini tanlash → investitsion loyihani shakllantirish → moliyalashtirish → amalga oshirish → monitoring → iqtisodiy natija.

Shundan kelib chiqib, investitsion faoliyatning iqtisodiy mohiyatini uchta asosiy jihat orqali ochib berish mumkin: resurs jihat – investitsiya korxonaning moliyaviy, moddiy va boshqa resurslarini muayyan obyektlarga yo‘naltirishni ifodalaydi; jarayon jihat – investitsion faoliyat loyihani ishlab chiqish, baholash, moliyalashtirish va amalga oshirishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi; natijaviy jihat – investitsiyalarning asosiy maqsadi kelajakda daromad, foyda, qo‘shilgan qiymat, ishlab chiqarish samaradorligi yoki boshqa iqtisodiy natijalarni olishdan iborat.

Sanoat korxonalari investitsion faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Sanoat korxonalari investitsion faoliyati boshqa xo‘jalik subyektlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, sanoat investitsiyalari ko‘p hollarda kapital sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan loyihalarga yo‘naltiriladi. Yangi ishlab chiqarish korxonasini tashkil etish, texnologik liniyalarni yangilash yoki ishlab chiqarish quvvatini oshirish katta miqdorda moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Ikkinchidan, sanoat investitsiyalarining qaytish davri nisbatan uzoq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun investitsion qarorlarni qabul qilishda qisqa muddatli moliyaviy natijalar bilan bir qatorda uzoq muddatli strategik natijalarni ham hisobga olish zarur.

Uchinchidan, sanoat korxonalari investitsion faoliyati texnologik risklar bilan bog‘liq. Yangi texnologiyaning kutilgan natijani bermasligi, uskunalarining tez ma‘naviy eskirishi yoki texnologik talablarning o‘zgarishi investitsiya samaradorligiga ta‘sir qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, investitsiyalarning samaradorligi tashqi bozor omillariga ham bog‘liq. Xomashyo narxlar, energiya tariflari, inflyatsiya, valyuta kursi, kredit foiz stavkalari va mahsulotga bo‘lgan talab investitsion loyihalarning moliyaviy natijalariga ta‘sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, sanoat investitsiyalari korxonaning raqobatbardoshligini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Investitsion loyihaning iqtisodiy mohiyati. Investitsion loyiha muayyan iqtisodiy natijaga erishish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning maqsadi, hajmi, muddati, resurslari, moliyalashtirish manbalari va kutilayotgan natijalarini o‘zida mujassamlashtirgan iqtisodiy hujjatlar va chora-tadbirlar tizimidir.

Investitsion loyihaning asosiy elementlarini quyidagi tartibda ifodalash mumkin:

Muammo → maqsad → investitsiya ehtiyoji → loyiha varianti → moliyalashtirish → amalga oshirish → natija.

Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni maqsadiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin (1-jadval):

1-jadval.
Sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni maqsadiga ko‘ra tasniflanishi¹

Loyiha turi	Asosiy maqsad
Modernizatsiya loyihasi	Mavjud quvvatlarni yangilash
Kengaytirish loyihasi	Ishlab chiqarish hajmini oshirish
Innovatsion loyiha	Yangi texnologiya yoki mahsulot joriy etish
Resurs tejankor loyiha	Xomashyo va energiya sarfini kamaytirish
Eksportga yo‘naltirilgan loyiha	Eksport hajmini oshirish
Yangi ishlab chiqarish loyihasi	Yangi mahsulot va quvvat yaratish
Ekologik loyiha	Atrof-muhitga ta‘sirni kamaytirish

¹ Muallif ishlanmasi



Investitsion loyihalarni shakllantirish bosqichlari. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni shakllantirishni quyidagi 8 bosqichli tizim asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

1-bosqich. Investitsion ehtiyojni aniqlash. Korxonaning mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy fondlarning holati, bozor talabi va texnologik ehtiyojlari tahlil qilinadi.

2-bosqich. Investitsion g'oyani shakllantirish. Korxona uchun iqtisodiy jihatdan istiqbolli investitsiya yo'nalishi aniqlanadi.

3-bosqich. Loyiha variantlarini ishlab chiqish. Bir muammoni hal qilish uchun bir nechta investitsion variantlar shakllantiriladi.

4-bosqich. Texnik-iqtisodiy asoslash. Loyihaning investitsiya hajmi, ishlab chiqarish quvvati, xarajatlari, tushumi va iqtisodiy natijalari aniqlanadi.

5-bosqich. Moliyalashtirish manbalarini belgilash. Loyihani:

- korxona o'z mablag'lari;
- bank kreditlari;
- lizing;
- xorijiy investitsiyalar;
- strategik investorlar;
- boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirish imkoniyatlari baholanadi.

6-bosqich. Investitsion risklarni baholash. Bozor, moliyaviy, texnologik, inflyatsion, valyuta va boshqa risklar aniqlanadi.

7-bosqich. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholash. NPV, IRR, PI, qoplanish muddati, rentabellik va boshqa ko'rsatkichlar hisoblanadi.

8-bosqich. Loyihani tanlash va amalga oshirish. Eng yuqori iqtisodiy va strategik samara beradigan loyiha tanlanib, uni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni faqat kapital qo'yilmalar hajmi bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. An'anaviy yondashuvlarda investitsion loyihaning samaradorligi asosan NPV, IRR, PI va qoplanish muddati kabi moliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlar loyihaning moliyaviy natijasini aniqlash uchun muhim bo'lsa-da, sanoat korxonasining uzoq muddatli strategik maqsadlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Masalan, texnologik modernizatsiyaga yo'naltirilgan investitsion loyiha qisqa muddatda yuqori NPV bermasligi mumkin. Biroq u:

- mehnat unumdorligini oshirishi;
- energiya sarfini kamaytirishi;
- mahsulot sifatini yaxshilashi;
- ekologik xarajatlarni kamaytirishi;
- eksport salohiyatini oshirishi;
- kelgusi investitsiyalar uchun texnologik baza yaratishi mumkin.

Shu sababli sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni tanlashda kompleks baholash yondashuvini qo'llash maqsadga muvofiq. Muallif tomonidan taklif etilayotgan kompleks yondashuv quyidagi besh blokdan iborat:

Moliyaviy samaradorlik.

NPV + IRR + PI + qoplanish muddati;

Ishlab chiqarish samaradorligi.

Quvvatdan foydalanish + mehnat unumdorligi + tannarx;

Innovatsion samaradorlik.

yangi texnologiya + mahsulot sifati + avtomatlashtirish;

Bozor samaradorligi.

talab + raqobatbardoshlik + eksport salohiyati;

Risk darajasi.

bozor + moliyaviy + texnologik + valyuta + inflyatsiya riski.

Bunday yondashuv investitsion qarorlarni qabul qilish sifatini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, investitsion faoliyat sanoat korxonasining moliyaviy resurslarini muayyan obyektlarga joylashtirish jarayonigina emas, balki ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish, texnologik yangilash, innovatsiyalarni joriy etish va kelgusida iqtisodiy natija olishga qaratilgan kompleks iqtisodiy jarayon hisoblanadi.



Ikkinchidan, sanoat korxonalarida investitsion faoliyatning o'ziga xosligi uning kapital sig'imkorligi, investitsiyalarning nisbatan uzoq muddatda qaytishi, texnologik va bozor risklarining yuqoriligi hamda investitsiyalarning korxona raqobatbardoshligiga bevosita ta'siri bilan belgilanadi.

Uchinchidan, investitsion loyiha korxonadagi investitsion g'oyani amaliy iqtisodiy natijaga aylantirish vositasi bo'lib, uni shakllantirish jarayoni investitsion ehtiyojni aniqlashdan boshlanib, loyihani tanlash va amalga oshirish bilan yakunlanishi lozim.

To'rtinchidan, investitsion loyihalarni baholashda NPV, IRR, PI va qoplanish muddati kabi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish, innovatsion, bozor va risk ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarur.

Beshinchidan, sanoat korxonalarida investitsion loyihalarni shakllantirishning **“investitsion ehtiyoj → loyiha g'oyasi → texnik-iqtisodiy asoslash → moliyalashtirish → samaradorlikni baholash → risklarni baholash → tanlash → monitoring”** modeli investitsion qarorlarning asoslanganligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, investitsion loyihalarni tanlashda kompleks baholash mexanizmini joriy etish sanoat korxonalarida investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va strategik maqsadlarga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London, 1776.
2. Marshall A. *Principles of Economics*. London: Macmillan, 1890.
3. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
4. Keynes J.M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan, 1936.
5. Porter M.E. *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press, 1985.
6. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. *Principles of Corporate Finance*. McGraw-Hill.
7. Damodaran A. *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset*. Wiley.
8. Blank L., Tarquin A. *Engineering Economy*. McGraw-Hill.
9. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. *Fundamentals of Corporate Finance*. McGraw-Hill.
10. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2019-yildagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-598-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
11. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasining investitsiyalar va sanoat sohasiga oid statistik ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>